XALQ DEPUTATLARI BO'KA TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-4-014-10-137-K/24 Bo'ka tumani

Bo'ka tumanining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi 2024-yil 24-dekabrdagi O'RQ-1011-son Qonuniga va xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-3-030-10-0-K/24-son qaroriga muvofiq hamda Bo'ka tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limining 2024-yil 26-dekabrdagi 01-20-228/27-38-1/72-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Bo'ka tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasining "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni hamda xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-3-030-10-0-K/24-son qarori (keyingi o'rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Bo'ka tumani mahalliy budjetining 2025-yilgi daromadlari **109 238 684,0 ming.so'm** va xarajatlari esa **109 238 684,0 ming.so'mga** ma'lumot uchun qabul qilinganligi hamda viloyat budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar **0,0 ming.so'm** miqdorida tasdiqlanganligi, shuningdek Bo'ka tumani mahalliy budjetining shaxsiy g'azna hisobvarag'ida turgan budjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori **529 816,0 ming.so'm** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko'rsatkichlari **1-ilova**ga muvofiq hamda tuman mahalliy budjetidan 2025-yilda hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari **2-ilova**ga muvofiq, shuningdek Bo'ka tumani mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me'yorlari **3-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman mahalliy budjeti zaxira jamg'armasi hajmi 2025-yil uchun **1 511 226,0 ming.so'm** miqdorida belgilansin. Bunda, zaxira jamg'armasi mablag'larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo'lmaydigan xarajatlarni,

shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlar doirasida:

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 m^2 yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsentlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalari **4-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 m^2 uchun mutlaq miqdorda belgilangan minimal qiymatga nisbatan kiritilayotgan koeffitsentlar muvofiq tasdiqlansin.

-yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari **5-ilova**ga muvofiq;

-jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i bo‘yicha o‘rnatilgan soliq stavkalariga 0,7 dan 1,3 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar **6-ilova**ga muvofiq;

YTTlar uchun belgilangan eng kam va eng yuqori stavkalari (diapazon) doirasida hududlar kesimida miqdorlari **7-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlarda quyidagicha tasdiqlash tavsiya qilinsin:

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 0,7 dan 1,3 gacha qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori **8-ilova**ga muvofiq;

noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdori **9-ilova**ga muvofiq;

mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdori **10-ilova**ga muvofiq.

2025-yil uchun tuman mahalliy budjeti shaxsiy g‘azna hisob varaqlarida tugan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **11-ilova**ga muvofiq belgilansin.

6. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari v.b M.Saydullayev, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (D.Mamatqulov), tuman soliq inspeksiyasi (Sh.Xazratov) bilan birgalikda 2025-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi

va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

8.Ushbu qaror tuman «Xalq ovozi» gazetasida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Bo‘ka tumani Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (O.Xamroyev) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari v.b M.Saydullayev zimmalariga yuklatilsin

Kengash raisi



BEGMATOV
BAXTIYOR
PAXRIDDINOVICH

Xalq deputatlari Bo‘ka tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-014-10-137-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Tumani budjeti daromadlarining 2025-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/r	Daromad turlari	Jami
1	Korxonalar aylanmasidan soliq	9 856 000,0
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	22 436 820,0
3	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 803 000,0
4	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	23 440 000,0
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4 361 000,0
6	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	7 414 000,0
7	Yuridik shaxslar yer solig‘i	13 683 000,0
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	22 073 000,0
9	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	0,0
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	4 051 864,0
11	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	120 000,0
	Jami daromad	**109 238 684,0**

Xalq deputatlari Bo‘ka tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-014-10-137-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025-yil uchun tuman budjetidan birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	Summa
	Xarajatlar miqdori, Jami	**109 238 684,0**
1	**Tuman Maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limi**	**31 328 105,0**
	shu jumladan:	
	“mening maktabim”	3 310 285,0
2	**Tuman Madaniyat bo‘limi**	**1 228 978,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 228 978,0
3	**Tuman Axborot-kutubxona markazi**	**566 602,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	566 602,0
4	**Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari**	**150 612,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	150 612,0
5	**Tuman Sport bo‘limi**	**6 253 450,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	6 253 450,0
6	**Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi**	**20 661 852,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	20 661 852,0
7	**Irrigatsiya bo‘limi**	**2 886 314,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 886 314,0
8	**Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi**	**2 114 818,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 114 818,0
9	**Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»**	**23 100,0**
	shu jumladan:	

	joriy xarajatlar	23 100,0
10	**Ijtimoiy ko‘nikma markazi**	**196 025,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	196 025,0
11	**Qishloq xo‘jaligi bo‘limi**	**3 269 484,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 269 484,0
12	**Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi**	**4 961 538,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 961 538,0
13	**Kambag‘alchilikni qisqartirish va bandlik bo‘limi**	**1 668 965,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 668 965,0
14	**"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari**	**2 496 362,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 496 362,0
15	**Hokimyat**	**9 054 894,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	9 054 894,0
16	**Zahira jamg‘armasi**	**1 511 226,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 511 226,0
17	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**20 866 359,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	20 866 359,0

Xalq deputatlari Bo‘ka tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-014-10-137-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy budjetlariga ajratmalar me’yori

Soliqlar turi			Bo‘ka tumani
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Tuman budjetiga	MRI	0%
		DSB	42%
Foyda solig‘i	Tuman budjetiga	MRI	0%
		DSB	0%
alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	Tuman budjetiga	MRI	0%
		DSB	0%
pivo	Tuman budjetiga	MRI	0%
		DSB	0%
benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	Tuman budjetiga	MRI	0%
		DSB	100%
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Tuman budjetiga	MRI	0%
		DSB	100%
Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Tuman budjetiga	MRI	0%
		DSB	100%
Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Tuman budjetiga	MRI	100%
		DSB	100%
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Tuman budjetiga	MRI	100%
		DSB	100%
Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar	Tuman budjetiga	MRI	0%
		DSB	100%
Aylanmadan soliq	Tuman budjetiga		100%
Davlat boji	Tuman budjetiga		0%
Jarima	Tuman budjetiga		0%
Yig‘imlar	Tuman budjetiga		0%

Xalq deputatlari Bo‘ka tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-014-10-137-K/24 -son qaroriga
4-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha tuman va shaharlar kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2025-yilda belgilangan koeffitsiyentlar

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 kv.m uchun		Jismoniy shaxslar bo‘yicha, 1 kv.m uchun	
		Koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025 yil uchun (so‘mda)	Koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2024-yil uchun (so‘mda)
	Bo‘ka tumani	**1.05**	**4 273,50**	**1.05**	**384,30**
1	Achamayli MFY	1,05	4 487,18	1,05	403,52
2	Achamayli Fayz Baraka MFY	1,05	4 487,18	1,05	403,52
3	Baxmal MfY	0,9	3 846,15	0,9	345,87
4	Beshkapa MFY	1,05	4 487,18	1,05	403,52
5	Bo‘ka MfY	0,9	3 846,15	0,9	345,87
6	Bunyodkor MFY	1,15	4 914,53	1,15	441,95
7	Bo‘ston MfY	0,9	3 846,15	0,9	345,87
8	Guliston MfY	1,15	4 914,53	1,15	441,95
9	Dashtobod MFY	1,05	4 487,18	1,05	403,52
10	Do‘stlik MFY	1,15	4 914,53	1,15	441,95
11	Jag‘albayli MFY	1,05	4 487,18	1,05	403,52
12	Jo‘raobod MFY	0,9	3 846,15	0,9	345,87
13	Ibrat MFY	1,05	4 487,18	1,05	403,52
14	Istiqlol MFY	0,9	3 846,15	0,9	345,87
15	Katta Ravot MfY	0,9	3 846,15	0,9	345,87
16	Kiyikchi MFY	0,9	3 846,15	0,9	345,87
17	Qoraquduq MfY	1,05	4 487,18	1,05	403,52
18	Qoraquyli MFY	1,05	4 487,18	1,05	403,52
19	Ko‘korol MFY	0,9	3 846,15	0,9	345,87
20	Quldiroq MFY	1,05	4 487,18	1,05	403,52
21	Quldoshtepa MFY	1,05	4 487,18	1,05	403,52
22	Qo‘chqorso‘ygan MFY	1,05	4 487,18	1,05	403,52
23	Moytepa MFY	1,05	4 487,18	1,05	403,52
24	Madaniyat MFY	1,15	4 914,53	1,15	441,95
25	Mirzabek MFY	1,05	4 487,18	1,05	403,52
26	Navro‘z MFY	1,15	4 914,53	1,15	441,95
27	Novobod MFY	0,9	3 846,15	0,9	345,87
28	Oltish MFY	1,05	4 487,18	1,05	403,52

29	Parkent MFY	0,9	3 846,15	0,9	345,87
30	Ramadon MFY	1,05	4 487,18	1,05	403,52
31	Rovot MFY	0,9	3 846,15	0,9	345,87
32	Samarqand MFY	0,9	3 846,15	0,9	345,87
33	Toshloq MFY	1,15	4 914,53	1,15	441,95
34	O‘zbek MFY	1,15	4 914,53	1,15	441,95
35	O‘rtatepa MFY	0,9	3 846,15	0,9	345,87
36	Xo‘jaqo‘rgon MFY	1,05	4 487,18	1,05	403,52
37	Chavlisoy MFY	0,9	3 846,15	0,9	345,87
38	Cho‘lobod MFY	0,9	3 846,15	0,9	345,87
39	Yangqo‘rg‘on MFY	0,9	3 846,15	0,9	345,87
40	Yangi Xayot MFY	1,15	4 914,53	1,15	441,95
41	Yangibog MFY	1,05	4 487,18	1,05	403,52
42	Yangiobod MFY	1,05	4 487,18	1,05	403,52
43	Shodlik MFY	1,05	4 487,18	1,05	403,52
44	Ezgulik Mfy	1,05	4 487,18	1,05	403,52

Xalq deputatlari Bo‘ka tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-014-10-137-K/24 -son qaroriga
5-ilova

Yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan (minimal qiymat) mutloq miqdorlari

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Koeffitsient	Mutloq miqdor *(so‘mda)*
1	Bo‘ka tumani	1,00	1 300 000,00

Xalq deputatlari Bo‘ka tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-014-10-137-K/24 -son qaroriga
6-ilova

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i stavkalari bo‘yicha tumanda 2025-yilga belgilangan koeffitsiyentlari

T/r	Tuman	Koeffitsiyent*				
		Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m gacha bo‘lganlarini qo‘shib hisoblaganda), ko‘p kvartirali uylarga uzviy bog‘liq bo‘lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	200 kv.m dan ortiq va 500 kv.m gacha bo‘lgan	500 kv.m dan ortiq bo‘lgan	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo‘lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish ob’ektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlari
1	Bo‘ka tumani	1,05	1,05	1,05	1,05	1,00

Xalq deputatlari Bo‘ka tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-014-10-137-K/24 -son qaroriga
7-ilova

YTTlar uchun belgilangan eng kam va eng yuqori stavkalari (diapazon) doirasida hududlar kesimida miqdori

T/r	Hudud nomi	2025 yil						
		Chakana savdo			Maishiy xizmat	Boshqa faoliyat turlari	Yuk tashish faoliyati	
		oziq-ovqat va nooziq ovqat tovarlari sotish	dexqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sotish	gazeta jurnallar va kitob mahsulot-lari sotish			3 tonnagacha yuk tashish avtomobil-lari uchun	3 tonnadan ortiq yuk tashish avtomobil-lari uchun
1	Bo‘ka tumani	350,00	100,00	100,00	100,00	100,00	250,00	350,00

Xalq deputatlari Bo‘ka tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-014-10-137-K/24 -son qaroriga
8-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar

(qishloq ho‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

T/r	**Tuman nomi**	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YaTTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1	Bo‘ka tumani	1,10	1,10	1,10	1,10	1,10	1,10	1,10	1,10

Xalq deputatlari Bo‘ka tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-014-10-137-K/24 -son qaroriga
9-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar*

T/r	Tuman nomi	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari)*, dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktosh dan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag‘al aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)
1	Bo‘ka tumani	1,10	1,10	1,10	1,10	1,10	1,10	1,10

Xalq deputatlari Bo‘ka tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-014-10-137-K/24 -son qaroriga
10-ilova

Mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsientlar miqdori

(ming so‘mda)

T/r	**Tuman nomi**	**II. Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan daromad solig‘i,** ming so‘mda					
		Turar joylar uchun			Noturar joylar uchun		
		2025 yil minimal qiymat	koeffis-yent	2025 yil stavka	2025 yil minimal qiymat	koeffis-yent	2025 yil stavka
1	Bo‘ka tumani	5,50	1,05	5,78	11,00	1,10	12,10

Xalq deputatlari Bo‘ka tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-014-10-137-K/24 -son qaroriga
11-ilova

2025-yilda tumanlar va shaharlar budjetlari shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori

(ming so‘mda)

№	Tuman nomi	2025-yil
1	Bo‘ka tumani	529 816,0